

**TARIXSHUNOSLIK TARIX FANINING MAXSUS SOHASI VA O'QUV FANI  
SIFATIDA.**

**Salaydinov Marufjon Maxamadjonovich**

*Muhammad al Xorazmiy nomli TATU FF akademik litseyi*

**Annotatsiya:** Tarixshunoslik tarixiy bilimlar taraqqiyotini, muayyan tarixiy bosqichda yaratilgan ilmiy mahsulotlarni yoki ma'lum bir muammoga bag'ishlangan tarixiy tadqiqotlarni urganadi va taxlil qiladi. Tarixshunoslik nafaqat tarix, balki maxsus tarix fanlari (masalan, sharqshunoslik, etnologiya, arxeologiya va boshqalar) tarixi bilan ham shug'ullanadi. Tarixshunoslikning asosiy vazifasi tarix fani rivojini chiqur va har tomonlama xolisona anglashdan, muayyan taraqqiyot davrida to'plangan tarixiy bilimlarni tahliliy tadqiq etishdan, amalga oshirilgan ishlarning natijasini chiqarishdan hamda shu asosda tadqiq etilgan dolzarb muammolarni aniqlab, kelgusi tadqiqotlarning yunalishlarini belgilashdan, tarixchilarни muayyan tarixiyilmiy muammo doirasidagi adabiyotlarga yunaltirishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** Istoriografiya, epos, Alpomish, Gurugli, Gerodot, umumjaxon tarixi, pragmatik tarix, Fukidid, Polibiy, ibn Xaldun, zardushtiylik, «Avesto».

Tarix fan sifatida qachon va qanday paydo bo'lgan? Bu savolga javob olish uchun antik, ya`ni qadimiyat istoriografiyasiga (manbalariga) murojaat qilamiz.

Ezuvlar vujudga kelguniga qadar epik asarlar (epos - grekcha so'z bo'lib, doston, rivoyat, afsona asarlarini anglatadi) tarixni o'rghanish uchun yagona manba edi. (Masalan, yunon shoiri Homerning «Iliada», «Odisseya» dostonlari, O'rta Osiyo xalqlarining «Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li» dostonlari, Vladimir, Muromli Il'ya, Dobrinya Nikitich, Alyosha Popovich kabi rus bahodirlari haqidagi dostonlar yoki «Igor' jangnomasi» qo'shig'i...)

Yozuvlar ixtiro qilinganidan so'ng esa toshlar yoki binolardagi bitiklar va yilnomalar eng qadimi yozma tarix manbalarini hisoblanadi. Usha davrlardagi voqealarning guvohlari yoki zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar keyinchalik xattotlar, shoirlar (bizda oqin, baxshilar) tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan yoki og'izdan-og'izga ko'chib, bizgacha o'tib kelgan manbalar qadimi manbalar hisoblanadi. Chamasi, yozuvi bo'lgan barcha xalqlarda bitiklar va yilnomalar uchraydi. Yunon olimi Gerodotning mashhur «Tarix» kitobi bizgacha etib kelgan eng qadimi tarixiy manbadir. Gerodot Kichik Osiyo (hozir Turkiya hududida) sohilidagi Galikarnas shahrida tug'ilgani uchun, unga Sharq ta'siri o'tganligi tabiiydir. Tsitseron zamondoshlariyoq (milodning I asri) Gerodotni «Tarix otasi» deb atashgan. Aslida Gerodotning bu asari oxiriga etkazilmagan (miloddan avvalgi 470 yilgacha bo'lgan voqealar bilan tugallanadi) va uni hozirgi ma'noda ilmiy-tadqiqot deb bo'lmaydi. Shunga qaramay, uning kitobi voqealar va dalillar ko'lami jihatidan va badiiy qiymati

jihatidan o'zidan avvalgi salafdoshlaridan anchagina baland turadi. Masalan, Gerodot o'z kitobida Kaspiy dengiziga chegaradosh erlarda bo'lgan janglarni tasvirlaydi. Shundan so'ng Kaspiy ortida yastalgan vohalar, ularda yashagan masoxatlar (massagetlar) haqida ezadi. Gerodot birinchi bo'lib Kaspiy dengizi Kaspiy xalqlari nomidan olinganligini aytadi.

Muarrixning buyuk shaxs ekanligini uning quyidagi xolis so'zlaridan ham bilish mumkin: «Men o'zim eshitgan narsalarni hikoya qilyapman, ammo ularning hammasiga ishonishim shart emas. Mayli bu xulosa mening yangi asarimga ham taalluqli bo'lsin». Miloddan avvalgi V-IV asrlarda yashagan Fukididning Peloponnes urushlari haqidagi asarini dunyoda birinchi ilmiy tarix deb e'tirof etishadi. Bu asar o'sha davr tarixiy voqealarining ishonchli va haqqoniy tasvirlangani bilan ajralib turadi. Gerodot asariga nisbatan Fukidid asari olg'a tashlangan qadam edi. Fukidid kitobida hayot voqealariga Olimp «xudo»larining aralashuvini ko'rmaymiz. Fukidid asarida tarixiy tahlilning asosiy talablari voqealar guvohlarining aytganlarini taqqoslash va bevosita o'sha voqealar qatnashchilarining hikoyalaridan foydalanish kabi fazilatlarni ko'ramiz. To'g'ri, Fukidid ham asotirlar, miflardan foydalanadi va bunda asosiy e'tiborni tarixiy taraqqiyotga, iqtisodiy omillarning ta'siriga qaratadi. Tarixiy dalillarni aniq bayon qilish va haqiqatni aniqlashga intilish Fukidid asarining asosiy fazilatidir.

Tarixiy voqealarini haqiqatga yaqin qilib ilmiy bayon etgan muarrixlardan yana biri, miloddan avvalgi II asrda yashagan Polibiydir. U o'zining «Umumjahon tarixi» asarida miloddan avvalgi 220-146 yillardagi voqealarini ellinlar (elladaliklar) nuqtai nazaridan tasvirlaydi: bu Urta er dengizi atrofidagi barcha eng muhim davlatlarning tarixini o'zaro bogliqlikda tasvirlagan birinchi asardir. Muarrix xulosasiga ko'ra har bir davlat tirik vujud kabi tabiat qonuniyatiga asosan usadi, rivoj-lanadi va inqirozga uchraydi. Polibiyda birinchi marta «pragmatik (amaliy) tarix» degan ibora uchraydi. Uz asarining 2-qismini muarrix pragmatik usulda quradi: u voqealar nima sababdan, qanday maqsadda yuz bergenligini aniqlaydi, ya`ni muayyan voqealarining kelib chiqish sabablarini birin-ketinligini, va oqibatlarini bayon qiladi.

Fukidid va Polibiy asarlari antik, ya`ni qadimgi davr tarixshunosligining cho'qqisini tashkil etadi. Keyingi yunon (grek) muarrixlarining deyarli barchasi ular izidan bordilar.

Rimliklar tarixshunoslikda va boshqa fanlar sohasida, shuningdek san`atda yunonlarning shogirdlaridirlar.

Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Iskandar qo'shinlari og'ir sharoitlarda Hindiqush tog' tizmalaridan o'tib, O'rta Osiyo hududlariga etib keldilar. Iskandarning bu harbiy yurish-lari uning istagiga muvofiq shohni kuzatib kelayotgan ba`zi adib-yozuvchilar va muarrixlar tomonidan yozib borilishi ko'zda tutilgan edi. Makedoniyalik lashkarboshilardan Aristobul, Ptolemey Lag va dengizchi darg'a Nearx ana shunday dastlabki tarix ezuvchilar edilar. Bu adiblarning xotiralari keyinroq o'tgan Arrian,

Strabon va boshqa muarixlarning asarlarida keltirilgan. Ammo yozma xotiralarining ko'pchilik qismi bizgacha etib kelmagan.

Iskandarning SHarqqa harbiy yurishlari vaqtida qanday voqealar yuz berganligi undan 300-400 yil keyin yashagan 5 tarixchining asarlarida tasvirlangan. Ular o'z asarlarida Iskandar zamondoshlarining asarlari va esdaliklaridan foydalanganlar.

Iskandarning O'rta Osiyoga yurishlari tasviri esa yunon tarixchisi Arrian (miloddan avvalgi II asr) va Rim tarixchisi Kvint Kurtsiy Ruf (milodning I asri) asarlarida saqlanib qolgan. Iskandarning SHarqqa qilgan yurishlarini mufassal yoritgan Plutarx (I-II asrlar) bilan YUstin (II asr) esa uning O'rta Osiyoga qilgan yurishlari haqida deyarli og'iz ochmaydilar. Sitsiliyalik Diodorning «Tarixiy kutubxona» asarida (miloddan avvalgi 1 asr) ko'p o'rinnlar yo'qolgan. Bu asar 17 kitobdan iborat bo'lib, Iskandarning Amudaryo ortiga yurishi tasvirlangan boblarning faqat sarlavhalarigina saqlanib qolgan.

Tarixshunoslik an`analariga ko'ra, Kvint Kurtsiy Ruf asari ishonchli emas, muallif badiiy so'z jimjimadorligiga e'tibor beruvchi, turli-tuman latifalarni va badiiy to'qimalar bilan asarini bezovchi faylasuf-ritorikdir, degan fikr hukm suradi. Tarixchi asarini bunday yuzaki baholash haqiqatga to'g'ri kelmaydi, mamlakatimiz tarixshunosligi ruhiga ham ziddir. Kurtsiy Rufning juda ko'p ma'lumotlari boshqa tarixiy manbalar bilan taqqoslanganida yuqoridagi fikrlarning to'g'ri ekanligining guvohi bo'lamiz.

Ammo Kurtsiy Ruf asarlariga nisbatan jangchi adib Arrian risolasida O'rta Osiyo voqealari bayoni ancha ishonchli hisoblanadi. Arrian o'zi Osiyodagi janglarda qatnashgan. Uning asari aslida harbiy san`atga bagishlansada, u Iskandar zamondoshlari Aristobul va Ptolemy Lag esdaliklaridan foydalangan. Ba`zi o'rinnlarda ulardan ko'chirmalar keltirilgan. Aristobul bilan Ptolemy Lag asarlarida faqat o'zlari qatnashgan voqealarni bayon etganliklari uchun Arrian ularda bo'limgan voqealarning etishmagan o'rinnarini Kurtsiy Ruf kitobidagi hikoyalar bilan to'ldiradi.

Makedoniyalik Iskandar va uning davriga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar bo'lishiga qaramay, bu fotihping O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida juda kam mualliflar yozganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi 331 yilda Gretsiya-Makedoniya qo'shinlari So'g'diyona hududlariga bostirib kirdilar. Ular bu erda mahalliy aholining juda qattiq qarshiligiga uchradilar. Milliy qahramon Spitamen rahbarligidagi xalq qo'zg'oloni tarixdan ma'lum. Iskandarga qarshi o'rta osiyolik xalqlarning urushlari uzoq davom etdi.

Tarixiy manbalardan So'g'diyona poytaxti Marokanda (Samarkand) qanday qilib makedoniyaliklar qo'liga o'tib qolganligini unchalik ravshan tasavvur etolmaymiz. Kvint Kurtsiy Rufning yozishicha, Iskandar shaharda qo'shin qoldirib, atrofdagi qishloqlarga o't qo'ygan. Kurtsiy Rufning guvohligiga ko'ra Marokanda qal`asi devorini uzunligi 70 stadiy bo'lib, shahar ichkarisida yana bir devor bo'lgan.

Bunday mustahkam shahar uzoq qamal qilinmay, kon to'kilmay olinganini tasavvur qilish qiyin. SHuning uchup sovet tarixchisi «Marokanda shahri jangsiz taslim bo'lgan» degan taxminni bildiradi.